UDK: 633.2/3:631.527(575.1)

LALMIKOR MAYDONLARDA YEM-XASHAK EKINLARINING QIMMATLI TIZMALARI

Isakov Kamoliddin Tuygunovich
q.x.f.n., k.i.x. Lalmikor dehqonchilik ilmiy-tadqiqot instituti

Isaqova Kamila Isamiddinovna
Tadqiqotchi, Lalmikor dehqonchilik ilmiy-tadqiqot instituti
https://doi.org/10.5281/zenodo.21941759

Annotatsiya: Ushbu ilmiy maqolada lalmikor yerlar sharoitida yem-xashak ekinlarining (makkajo‘zxori, xashaki noxat, sulton o‘ti va beda) turli kolleksiya namunalarini o‘rganish, noqulay ob-havo omillariga (qurgoqchilik, issiqqa) chidamli hamda yuqori hosildor boshlangich seleksiya manbalarini tanlab olish masalalari yoritilgan. 2023–2025 yillarda o‘tkazilgan tadqiqotlar natijasida istiqbolli va yangi nav yaratish uchun xomashyo bo‘la oladigan namunalar va chizmalar aniqlandi hamda ularning biologik ko‘rsatkichlari atroflicha tahlil qilindi.
Kalit so‘zlar: Lalmikor, dehqonchilik, yem-xashak, ekin, seleksiya, boshlangich manba, tizma, qurg‘oqchilik, chidamlilik, hosildorlik, biomassasi, ozuqa birligi.

Kirish. O‘zbekiston Respublikasining lalmikor hududlarida chorvachilik tarmog‘ini barqaror va sifatli ozuqa bazasi bilan ta’minlash qishloq xo‘jaligi sohasidagi eng dolzarb va strategik vazifalardan biri hisoblanadi.

Lalmi yerlarning o‘ziga xos keskin qitaviy tuproq-iqlim sharoiti, ya’ni bahorgi va yozgi qurg‘oqchilik, namlikning yetishmasligi hamda havo haroratining keskin ko‘tarilishi yem-xashak ekinlaridan yuqori va barqaror hosil olishni sezilarli darajada murakkablashtiradi. Shu bois, ushbu ekstremal sharoitlarga moslashgan, qurg‘oqchilikka, kasallik hamda zararkunandalarga chidamli, yuqori ozuqaviy qiymatga ega bo‘lgan yangi navlarni yaratishda sifatli va genetik boy boshlang‘ich manbalarni (tizmalarni) tanlab olish va ularni seleksiyaga jalb etish juda muhim ilmiy va amaliy ahamiyatga ega.

Lalmikor dehqonchilikda ozuqa ishlab chiqarish hajmini oshirish bevosita ekiladigan ekin turlarining genetik salohiyatiga hamda ularning noqulay muhit omillariga chidamlilik darajasiga bog‘liq. Shuning uchun, mahalliy va xorijiy kolleksiya namunalarini har tomonlama o‘rganish hamda seleksion baholash muhim hisoblanadi.**Tadqiqot usulbi va manbalari.** Tadqiqotlar Lalmikor dehqonchilik ilmiy-tadqiqot institutining tajriba maydonlarida 2023–2025 yillar mobaynida olib borildi. Tajribada yem-xashak ekinlarining 40 dan ortiq kolleksiya namunalari va intensiv duragay chizmalari o‘rganildi. Dala tajribalari barcha agrotexnik tadbirlar Lalmikor dehqonchilik ITI tomonidan 1994 yilda ishlab chiqilgan tavsiya va uslublar asosida, fenologik kuzatuvlar, dala va laboratoriya sharoitida turli ko‘rsatkichlar bo‘yicha baholashlar Qishloq xo‘jalik ekinlari navlarini sinash Davlat komissiyasi (1985, 1989) va sobiq butunittifoq o‘simlikshunoslik instituti (VIR, 1985) da ishlab chiqilgan uslubiy qo‘llanmalar asosida olib borildi.

O‘simliklarning o‘sishi va rivojlanish davrlari to‘liq qayd etib borildi. Qurg‘oqchilikka chidamlilik darajasi 5 ballik tizimda vizual va fiziologik ko‘rsatkichlar asosida baholandi.

Tadqiqot natijalari va muhokama. O‘rganilgan boshlang‘ich seleksiya tizmalari va namunalari orasida o‘simliklarning o‘sish dinamikasi, poya va barg nisbati hamda ko‘k massa hosildorligi bo‘yicha sezilarli darajada farqlar kuzatildi. Lalmikor sharoitda o‘simliklarning ildiz tizimi rivojlanishi va suv yetishmovchiligiga chidamliligi asosiy seleksion belgi va mezon sifatida baholandi. Tajribalar natijalari bo‘yicha olingan ko‘rsatkichlar 1-jadvalda keltirilgan.

1-jadval. Yem-xashak ekinlari tizmalarining biometrik ko‘rsatkichlari va ko‘k massa hosildorligi (2023–2025 yillar)

Nav va tizmalar nomi	O‘simlik bo‘yi (sm)	Bitta o‘simlik dagi barglar soni (dona)	Qurg‘oqchi-likka chidamli-ligi (ball)	Ko‘k massa hosili (s/ga)	Standartga nisbatan farqi (+/- s/ga)
Makkajo’xori	145.2	8.4	3.8	120.5	—
Beda	168.0	11.2	4.6	148.2	+27.7
Arpa	159.5	10.1	4.4	139.0	+18.5
Sorgo	78.4	—	3.5	85.0	—
Sudan o’ti	92.1	—	4.5	108.4	+23.4

Jadval ma’lumotlaridan ko‘rinib turibdiki, Tizma L-12/21 sulton o‘ti va tizma KhN-8/20 xashaki noxat liniyalari andoza navlarga nisbatan balandroq bo‘yli, ko‘p bargli hamda qurg‘oqchilikka yuqori chidamliligi (4.5–4.6 ball) bilan ajralib turdi. Ko‘k massa hosildorligi mos ravishda 108.4- 148.2 s/ga ni tashkil etib, andozadan sezilarli darajada (mos ravishda 23.4-27.7 s/ga) yuqori bo‘ldi.

Xulosa. Lalmikor yerlar sharoitida yem-xashak ekinlarining L-12/21 va KhN-8/20 seleksion tizmalari o‘zining biologik va xo‘jalik uchun qimmatli belgilari bilan ajralib turdi. Ushbu chizmalar lalmikor sharoitga mos, yuqori hosildor va qurg‘oqchilikka chidamli yangi navlarni yaratishda uchun qimmatli va istiqbolli boshlang‘ich manba sifatida tavsiya etiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Xamroev, Q. R., & Boboev, S. K. (2021). Lalmikor maydonlarda yem-xashak ekinlari kolleksiya namunalarini qurg'oqchilikka chidamliligi bo'yicha baholash. O'zbekiston Qishloq Xo'jaligi Ilmiy Axborotnomasi, (3), 42–46-b.
2. Allashov, B. D. (2019). Lalmikor yerlarda ozuqa ekinlari etishtirish va ularning seleksion boshlang'ich manbalarini yaratish. Toshkent: Fan va texnologiya nashriyoti, 158-b.
3. Muxammadiev, A. A., & Shamsutdinov, Z. Sh. (2020). Arid hududlar uchun ozuqa ekinlarining yangi navlarini yaratishda seleksiya usullari. Cho'l-yaylov dehqonchiligi ilmiy jurnali, 12(2), 18–24-b.
4. Yusupov, M. T., & Tursunov, S. X. (2022). Lalmi dehqonchilikda noxat va vika ekinlarining hosildorlik ko'rsatkichlarini tanlash chizmalari bo'yicha tahlili. Agro Ilm Jurnali, 4(80), 29–33-b.